



O'zbekiston yashil iqtisodiyot sari



THE WORLD BANK
IBRD • IDA | WORLD BANK GROUP

AVGUST | 2022-YIL

© 2022 Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki / Jahon banki

1818 H Street NW

Vashington (Kolumbiya okrugi)20433

Telefon: 202-473-1000

Internet: www.worldbank.org

Ushbu hisobot Jahon banki guruhi xodimlari va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining hamkorlikdagi faoliyati natijasidir. Hisobotda taqdim etilgan fikrlar, sharhlar va xulosalar Jahon banki, uning Direktorlar kengashi yoki ular vakillik qiladigan hukumatlarning nuqtai nazarini ifoda etmasligi mumkin.

Jahon banki ushbu hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, to'liqligi yoki dolzarbligiga kafolat bermaydi. Bank ma'lumotlardagi har qanday xatolar, kamchiliklar va nomuvofiqliklar yoki ushbu hujjatda keltirilgan ma'lumotlardan, usullardan, jarayonlardan va xulosalardan foydalanish yoki foydalanmaslik uchun javobgar emas. Ushbu hisobotda keltirilgan xaritalarda ko'rsatilgan chegaralar, ranglar, nomlar va boshqa ma'lumotlar Jahon banki biron bir hududning huquqiy maqomi yoki bunday chegaralarni qo'llab-quvvatlashi yoki tan olishini bildirmaydi.

Ushbu hujjatdagi hech narsa Jahon bankining to'liq saqlab qolgan imtiyozlari va immunitetlari cheklanishi yoki Bank ulardan voz kechishiga sabab bo'lishi mumkin emas.

Huquqlar va Foydalanish uchun Ruxsatlar

Ushbu hisobotdagi materiallar mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Jahon banki o'z hujjatlarining tarqatilishini rag'batlantirishi sababli, ushbu hujjat to'liq havola berish sharti bilan notijoriy maqsadlarda to'liq yoki qisman ko'paytirilishi mumkin.

Iltilimos, ushbu hisobotga havolani quyidagicha keltiring: "The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. ©World Bank."

Huquqlar va litsenziyalar uchun barcha so'rovlar Jahon bankining quyidagi manzildagi Nashriyot bo'limiga yuborilishi kerak: World Bank Publications, The World Bank Group, 1818 H Street NW, Washington, DC 20433, USA; fax: 202-522- 2625; e-mail: pubrights@worldbank.org.

MINNATDORCHILIKLAR

Ushbu hisobot **Veyen Leou, Yelena Strukova-Golub, Appolonia Mbove, Paola Agostini, Kristina Govoruxa** (maslahatchi), **Erjon Lyusi** (maslahatchi) va **Anil Markandya** (maslahatchi) boshchiligidagi Jahon bankining asosiy guruhi tomonidan **Kseniya Lvovskayaning** umumiy rahbarligi ostida tayyorlangan.

Shuningdek, hisobotni tayyorlashda Jahon bankining boshqa xodimlari ham katta hissa qo'shdilar - **Elbek Yusupov, Uilyam Zeyts, Uilyam Yang, Ferxat Essen, Sergiy Zorya, Robert Vrobel, Daniel Kull, Rozanna Nitti, Mariana Yootti De Payva Dias, Tarik Saxovich, Emil Abdikalikov, Richard Damaniya** va **Jeyson Russ** hamda Perdyu universitetidan **Maksim Chepelev**. Jamoa **Kreyg Meysner, Urvashi Narain** va **Monali Ranadega** ushbu hisobot bo'yicha o'z taqrizlarini taqdim etganliklari uchun minnatdorchilik bildiradi. Bundan tashqari, jamoa **Marko Mantovanelli** va **Jeyn Ebingerga** batafsil ko'rsatmalar va yordam uchun minnatdorchilik izhor etadi.

Jamoa ushbu hisobot ustida olib borilgan ishlarni o'z bilimi va fikri, taqdim etgan ma'lumotlari bilan qo'llab-quvvab kelgan ko'plab davlat xizmatchilariga chuqur minnatdorchilik bildiradi. Jamoa O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi rahbariyati va xodimlariga, xususan, vazirning birinchi o'rinbosari **Ilhom Norqulov** va departament direktori **O'tkirjon Xolbadalovga** o'z minnatdorchiligini izhor etadi. Shuningdek, jamoa o'z bilimlari bilan bo'lishgan va ushbu hisobotning matni va yakuniy tavsiyalarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatgan ko'plab manfaatdor tomonlarga minnatdorchilik bildiradi.

Ushbu hisobot PROGREEN global hamkorligining moliyaviy ko'magi hisobiga tayyorlangan.

ASOSIY QISQA MA'LUMOTLAR

So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar O'zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o'tishi uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy islohotlar yanada "yashil" bo'lib, iqtisodiyot barqaror bo'lsa, ushbu jarayon O'zbekiston uchun yanada foydaliroq kechishi mumkin.

2016-yilda O'zbekiston rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishni boshladi. Ko'pgina muhim tarmoqlarda bozor islohotlari faollashdi. Hukumat COVID pandemiyasi davrida kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish bilan bir vaqtda islohotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Bu sa'y-harakatlar ko'zlangan naatijalarni berdi va bugun O'zbekistondagi odamlar farovonlik va turmush sharoitlari yaxshilanganini his etmoqda. Iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichida kambag'allikni ikki baravar kamaytirish va 2030-yilga borib O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori davlatga (UMIC) aylantirishni maqsad qilib qo'yilgan. Iqtisodiy islohotlarga "yashil" maqsadlarni joriy etish orqali O'zbekiston o'tish jarayonini mustahkamlash va ushbu jarayondan olinadigan foydani oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu sinergiya "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da ham e'tirof etilgan.

"Yashil" o'tish mustaqil jarayon emas, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tishning ajralmas qismidir. "Yashil" siyosat resurslarning va boylikning yanada samarali taqsimlanishiga, raqobatbardosh korxonalarga olib keladi. "Yashil" yondashuv resurslarning samarali ishlatilishiga va atrof-muhitning oqilona boshqarilishiga e'tibor beradi, bu esa samarali tabiiy resurslar bazasini saqlab qolgan holda boshqa sohalarda o'sish bo'lishi uchun ko'proq resurslarni bo'shatadi. "Yashil" siyosat yashil texnologiyalar va yechimlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yangi ish o'rinlari yaratadigan va samarasiz davlat korxonalari rivojlanishdan ushlab turgan iqtisodiyotni yanada faollashtiradigan yangi ishtirokchilar va ularning tajribasi, innovatsiyalar va kapitalni talab qiladi. "Yashil" o'tish o'zgarishlarning zarar ko'rgan ishchilarga ta'sirini yumshatish hamda ularning yashil imtiyozlar va imkoniyatlardan foydalanishiga ustuvor ahamiyat berish orqali o'tishning salbiy oqibatlarini bartaraf etadi. Buning natijasida jamoatchilikning iqtisodiy islohotlarni qabul qilishi kuchayadi va o'tish jarayoni o'z yo'lida davom etishi mumkin bo'ladi.

Yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga aylanish uchun mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak. Hukumat kelajakda paydo bo'ladigan boshqa muammolarni ham oldindan bilishi kerak; resurslardan foydalanish va zaruriy tovarlar narxining o'zgarishi, ehtimol, past daromadli aholi guruhlariga ta'sir qilishi mumkin. "Yashil" sektorlarni qo'llab-quvvatlash hamda uglerod va resurslarni ko'p talab qiladigan faoliyat turlaridan voz kechish investitsiyalar va ish o'rinlari yaratilishi tuzilmasini o'zgartiradi. Natijada kimdir bundan foyda ko'radi, kimdir esa jabr ko'radi. Iqlim o'zgarishining jismoniy ta'siri kabi boshqa omillar muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

Jahon bankining "Yashil, Barqaror va Inklyuziv Rivojlanish" (GRID) yondashuviga asoslangan diagnostika yuqori daromadli mamlakatlarga taqqoslaganda o'zgarishlar talab etiladigan sohalarni aniqlaydi. Iqtisodiy mahsulotning iste'mol qilingan har bir kilogramm materialiga 0,8 AQSh dollari miqdoridagi resurs samaradorligi Yevropa Ittifoqi (Yel) va boshqa daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlardagi ko'rsatkichdan ancha pastroq – o'rtacha 2,9 AQSh dollari. O'zbekistonda ayniqsa suv samarasiz ishlatiladi: foydalanilgan suvning har bir kubometri uchun iqtisodiy unumdorlik daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlarga qaraganda 14 dollarga past. O'zbekistonning yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya iste'moli YeMO mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan qariyb uch baravar va qo'shni Qozog'istonniki ikki baravar ko'p. Degradatsiyaga uchragan yerlardagi changning shamol ta'sirida ko'chishi shahar va sanoat manbalaridan chiqadigan qattiq zarrachalar havoni ifloslantirishi holatini og'irlashtiradi. Aholining katta qismi muntazam ravishda nosog'lom deb

hisoblangan havodan nafas oladi: yalpi ichki mahsulotning 6 foiziga teng bo'lgan tasodifiy bo'lmagan o'lim holatlarini havo ifloslanishi bilan bog'lash mumkin (3.3-bo'lim). Yer degradatsiyasi iqtisodiyot uchun juda qimmatga tushadi va bu o'zaro bog'liq ekologik muammolar tufayli yuzaga keladi. Degradatsiyaga uchragan yerlar bilan bog'liq atrof-muhitning degradatsiyasi (3.2-bo'lim) YalMning 4 foiziga teng zarar keltiradi.

O'zbekiston ob-havo o'zgarishlari oldida zaif va mamlakatning Chidamlilik indeksi past.

Qurg'oqchilik va suv toshqinlari oqibatlarini tahlili shuni ko'rsatdiki, eng ko'p zarar ko'rgan aholi guruhlari daromad darajasi va iste'molda katta yo'qotishlarga duch kelmoqda. Boshqa mamlakatlarda ob-havoning keskin yomonlashuvidan aziyat chekayotgan aholi soni ko'proq bo'lsa ham, bu O'zbekistonni Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida ijtimoiy himoyasi zaif davlatga aylantirdi. Iqlim o'zgarishining ehtimoliy modeli tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatdagi ijtimoiy himoya zaifligi faqat oshib boradi. Tahlillarda qayd etilgan o'ta zaif hududlar orasida Farg'ona vodiysi va Qoraqalpog'iston Respublikasi alohida ajralib turadi.

Tabiiy kapital hisobining tahlili tabiiy resurslarni boshqarish va mamlakat Chidamlilik indeksining pastligi o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

O'zbekiston aholi jon boshiga tabiiy resurslar bo'yicha Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridan, Qozog'istonni hisobga olmaganda, yaxshiroq ko'rsatkichga ega. Biroq tabiiy kapitalda yaylovlar va haydaladigan yerlarning ulushi ancha ko'p, ekotizimlarning ishlab turishini ta'minlaydigan o'rmonlar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ulushi esa kamroq. Suvdan ortiqcha foydalanish bilan birgalikda ushbu omillar yer degradatsiyasining tarqalishida davom etishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, iqlim va global siyosiy landshaft o'zgarishi kabi boshqa xavflar ham paydo bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishining jismoniy ta'siri bevosita iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelmoqda.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, asosan qishloq xo'jaligiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy yo'qotishlar 2030-yilga kelib YalMning 1 foizini tashkil qilishi baholangan (4.2-bo'lim). Iqtisodiy yo'qotishlarning qariyb yarmi suv va biologik xilma-xillikning qisqarishi natijasida yashash joylarining yo'qolishi bilan bog'liq bo'lib, bu birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga ta'sir qiladi. Iqlim o'zgarishi mehnat unumdorligiga ham ta'sir qiladi va O'zbekistonda ishchi kuchi bo'yicha taklifning 2-5 foiz punktga qisqarishiga olib kelishi mumkin. Oziq-ovqat ishlab chiqarishni iqlimga mos qishloq xo'jaligi orqali qisman moslashtirish mumkin. Yer, suv va landshaftni samaraliroq boshqarish esa iqlim o'zgarishi ta'sirlarini yanada yumshatishi mumkin.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha jamoaviy harakatlar doirasida mamlakatlar kam uglerodli siyosatni qabul qilishadi, qazib olinadigan yoqilg'iga global talab esa asta-sekin kamayib boradi.

Ko'p uglerod talab qiluvchi eksportga ta'sirning tahliliga ko'ra (4.3-bo'lim), O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti va farovonligiga sezilarli darajada putur yetadi. O'zbekistonning asosiy eksport bozorlari o'rtasida siyosatni muvofiqlashtirishning, shu jumladan ko'p uglerod talab qiluvchi mahsulotlarga transchegaraviy soliqlar qo'llash orqali, turli ssenariylariga ko'ra, 2050-yilgacha O'zbekistonning tabiiy gaz va neft eksporti 40 foizgacha zarar ko'rishi mumkin. Biroq, O'zbekiston o'zining kam uglerodli siyosatini olib borish orqali bu ta'sirlarni yumshata oladi.

Boshqacha aytganda, yer degradatsiyasi, suv tanqisligi va havoning qattiq zarrachalar bilan ifloslanishi hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb muammolardir.

O'zbekistonning yuqori darajada energiya va uglerod talab etadigan iqtisodiyoti mamlakatni uglerod darajasini kamaytirish bo'yicha global siyosat va asosiy savdo hamkorlarining moslashtiruvchi chegara soliqlari oldida zaif qilib qo'yadi. Iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarisiz esa mamlakatning ekologik muammolari va past darajadagi ijtimoiy chidamlilik yanada chuqurlashadi.

Ushbu iqtisodiy yo'qotishlarning aksariyatini iqtisodiy foydaga aylantirish mumkin. Bu uchun amaldagi iqtisodiy islohotlarda "yashil" ustuvorliklarni belgilash lozim.

Ushbu ustuvorliklar E.1 jadvalda umumlashtirilgan va hukumatning Yashil o'sish strategiyasining oltita yo'nalishiga

muvofiq taqdim etilgan. Ro'yxatda keltirilgan ustuvor yo'nalishlarning aksariyati hisobot tahliliga asoslanadi, qolganlari esa hisobotga ilova qilingan maslahatlashuvlar chog'ida aniqlangan. Shunday maslahatlashuvlardan biri Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi boshchiligidagi bir qancha vazirliklar va tashqi manfaatdor tomonlar ishtirokida o'tgan "Yashil o'sish" dialogi turkumi.

Shuningdek, hisobotda kam uglerodli rivojlanish va "yashil" ish joylari yaratishni rag'batlantirish kabi ushbu ustuvorliklarning ayrimlariga erishish uchun samarali strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Atmosferaga chiquvchi uglerod chiqindilarini kamaytirish siyosati kam uglerodli va samaradorligi yuqori energiyaga o'tish uchun zarur rag'batlarni yaratadi (5.1-bo'lim). Hozirda davlat korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning turli shakllariga kiritilgan yirik energetika subsidiyalarini qisqartirish boshlanish nuqtasi bo'ladi. Keyin esa uglerod solig'i yoki qazib olinadigan yoqilg'ilarga mos narxlar joriy etiladi. Ushbu strategiyalar uglerod chiqindilarini kamaytirishda yuqori samaradorlikka ega va resurslarni safarbar qilish salohiyati tufayli ham ko'proq ma'qul keladi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF) va Jahon bankining uglerod narxlarini baholash vositasi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda uglerod narxlari yalpi ichki mahsulotning 5 foizigacha qo'shimcha fiskal daromad keltirishi mumkin. Ushbu mablag'lar "yashil" loyihalarni moliyalashtirish yoki uy xo'jaliklariga iqtisodiy ta'sirni yumshatish uchun ishlatilishi mumkin. Bir tonna uchun 35 AQSh dollari miqdoridagi uglerod solig'i odatdagi stseneriyaga nisbatan uglerod chiqindilarini 11 foizga qisqartirishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlarning xarajatlari qisman havo sifatining yaxshilanishining foydali tomonlari bilan qoplanadi. Qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni qisqartirish, landshaftni tiklash va shamol ko'chiradigan changni cheklash bo'yicha boshqa chora-tadbirlar aholi salomatligiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa shaharlarda. Atmosfera havosining mavsumiy ifloslanishi muammolarini hal qilish uchun markazlashtirilgan issiqlik ta'minotini maqsadli kengaytirish bilan shaharsozlikni takomillashtirish, shu jumladan Qashqadaryoda ham, qo'shimcha ijobiy natijalarga olib keladi.

Ish o'rinlarini yaratish va qayta taqsimlash strategiyalari yashil o'tish davridagi ayrim ijtimoiy oqibatlarni yumshatishga yordam beradi. Investitsiya multiplikatorlari va atrof-muhit ko'rsatkichlarini hisobga oladigan yangi "yashil" ish o'rinlari tahliliy vositasi (5.3-bo'lim) yordamida bir qator "yashil" sektorlar va sanoatlar aniqlangan. Sektorlarda tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshayotganda, kapital va ishchi kuchi kabi bo'shagan resurslar yuqori qiymatga ega "yashil" sanoat sektorlariga yo'naltirilishi mumkin. Sog'liqni saqlash, ta'lim, moliya va iqlimga moslashtirilgan konchilik ish o'rinlari va ekologik natijalarni optimallashtiradigan eng yaxshi "yashil" sohalar qatoriga kiradi. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalari va "yashil" salohiyatga ega boshqa innovatsion texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarning kengroq ro'yxatini tahlil qilishda davom etish lozim. Bandlik eng yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi yuqori qiymatga ega bo'lgan bog'dorchilikka o'tish va chorvachilikni qo'llab-quvvatlash orqali ko'proq "yashil" ish o'rinlarini yaratish va turmush sharoitini yaxshilash salohiyatiga ega. Iqtisodiyot kam uglerodli modelga o'tganda ba'zi aholi guruhlari va tarmoqlar boshqalarga qaraganda ko'proq xavf ostida bo'ladi. Resurslar samaradorligi esa muhim xizmatlarni qayta baholashga olib keladi. Qazib olinadigan yoqilg'i sohasining ko'chirilgan ishchilari uchun daromadlarni tiklash va qayta taqsimlash dasturlarini joriy qilish kerak. Bunday tashabbuslar ekologik soliq tushumlaridan moliyalashtirilishi mumkin. Bu jamiyatni islohotlarga sodiq qolishi uchun erta va sezilarli foyda keltiradi.

"Yashil" iqtisodiyotni qurish katta hajmdagi moliyalashtirishni talab qiladi, ammo "yashil" moliyalashtirish strategiyalari bu muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Dastlabki tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatda davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish va uni "yashil" maqsadlarga moslash uchun yetarli imkoniyatlar mavjud (5.2-bo'lim). Shuningdek, "yashil" soliqlar orqali daromadlarni jalb qilish imkoniyatlari ham mavjud, bu boshqa soliqlarni oshirishga qaraganda iqtisodiy o'sishga kamroq ta'sir qiladi. Xususiy mablag'larni "yashil" investitsiyalarga yo'naltirish davlat byudjetini "yashil" sektorlarga sarflashga yordam beradi. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) obligatsiyalari bo'yicha so'nggi ijobiy tajriba yashil xususiy kapitalni jalb qilish uchun asos yaratadi.

Navbatdagi bosqichlar

Ushbu hisobot O'zbekiston eng dolzarb ekologik va boshqa xavf omillarini aniqlash va iqtisodiy islohotlarda aks etishi kerak bo'lgan yashil ustuvorliklarni sanab o'tish orqali yashil iqtisodiy o'tishga erishishi mumkinligiga dastlabki baho beradi. Bu yo'nalishdagi ba'zi strategiyalar ushbu hisobotda tahlil qilingan bo'lsa-da, ushbu hisobotda tegishli siyosat va chora-tadbirlarni oqilona ishlab chiqish uchun izlanishlarni davom ettirish tavsiya qilinadi. Mamlakatdagi jadal iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, ishonchli tahlil va modellashtirish uchun zamonaviy iqtisodiy ma'lumotlarni olish qiyin bo'lib qolmoqda. Siyosatni muvofiqlashtirish so'nggi ma'lumotlarga asoslangan qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Bunday tadqiqotlar suv va energiya narxlarini asoslash uchun taqsimlash tahlilini, shuningdek, investitsiya xarajatlari va iqlimga mos xavflarni baholashga asoslangan moslashish va barqarorlik strategiyalarini o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlar ushbu hisobotga kiritilmagan, lekin Jahon bankining bo'lajak tahliliy ish dasturining bir qismi sifatida amalga oshirilishi mumkin, jumladan, Iqlim va mamlakat taraqqiyoti hisoboti (CCDR), Iqlim o'zgarishini institutsional baholash (CCIA) va Yashil o'sishni dasturiy qo'llab-quvvatlash hisobotlari kabi.

E.1-jadval Iqtisodiy o'tish uchun "yashil" ustuvorliklar

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Yerdan barqaror foydalanish: qishloq xo'jaligi, suv va landshaftlar (15-BRM: Yerdagi hayot) Suvdan samarali foydalanish, yer unumdorligi va ijtimoiy himoyaning zaifligi o'rtasida jiddiy bog'liqlik mavjud. Suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirish ustuvor vazifa bo'lib, narxlarning shakllanishi va sug'orishga investitsiyalar yuqori samarali vosita hisoblanadi. Suvdan foydalanish chegaralarini ham yodda tutish kerak. Landshaftning tiklanishi qishloq xo'jaligini bilvosita qo'llab-quvvatlaydi. Ishchi kuchining harakatchanligi (mobilligi), ish o'rinlarining mavjudligi va qayta o'qitish imkoniyatlari mavjud sharoitda qishloq xo'jaligida, shu jumladan yuqori qiymatga ega faoliyatlarda, bandlik o'sishi mumkin.	Qisqa muddatli o'rta muddatligacha: • Yer degradatsiyasini nafaqat tuproq eroziyasini to'xtatish, balki o'rmon va landshaftlarni tiklash dasturlarini qabul qilish orqali ham to'xtatib qolish mumkin. • Iqlimga moslashtirilgan qishloq xo'jaligini joriy etish • Sug'orish suvi narxlari va suv tariflarini xarajatlarni aks ettiruvchi darajaga bosqichma-bosqich ko'tarish va tarif imtiyozlarini bekor qilish • Texnik yo'qotishlar va suv yo'qotilishini kamaytirish uchun eskirgan suv ta'minoti infratuzilmasini modernizatsiya qilish O'rta muddatli uzoq muddatligacha: • Mintaqaviy hamkorlikni hisobga olgan holda ekologik barqarorlik talablariga muvofiq suvdan foydalanishni cheklash • Yangi texnologiyalarga investitsiya xatarlarini kamaytirish, yer islohotini rag'batlantirish va davlat-xususiy sherikligi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali suvdan foydalanishda samarali texnologiyalar va iqlimga mos qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash. • Ishchi kuchini qayta tayyorlashga ko'maklashish orqali qishloq xo'jaligidan yuqori qiymatga ega va yuqori ish haqiga ega tarmoqlarga o'tishni ta'minlash, ayniqsa, eng zaif ayollar va yoshlar o'rtasida.	• Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi • Qishloq xo'jaligi vazirligi • Suv xo'jaligi vazirligi • O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi • Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi • Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni kuchaytirish (13-BRM: Iqlim sohasidagi choralar) Iqlim o'zgarishi ijtimoiy sohani zaiflashtiradi: qurg'oqchilikka moyil bo'lgan qishloq aholi punktlari daromad va iste'moldagi katta yo'qotishlarga duch kelishi kutilmoqda, aholi zich joylashgan Farg'ona vodiysi esa ham quruqlik, ham namlik ofatlaridan aziyat chekishi kutilmoqda.	Shor Qisqa muddatidan o'rta muddatligacha: - Xarajatlarni baholash va moliyalashtirish manbalarini o'z ichiga olgan maxsus moslashtirish choralari tayyorlash orqali chidamlilik rejalarini amalga oshirish - Orol dengizi tubi kabi muhim cho'llanish zonalariga asosiy e'tiborni qaratgan holda xarajatlarni kamaytirish va uzoq muddatli natijalarga erishish uchun iloji boricha tabiatga asoslangan qarorlar qabul qilish - Aholining eng zaif qatlamlarini, ayollar va yoshlarni iqlim o'zgarishi oqibatlariga haqida xabardor qilish va ularni himoya qilish uchun mahalliy institutlar tuzilmalarini mustahkamlash	- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi - Favqulodda vaziyatlar vazirligi - Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi - O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet)

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Falokatdan sug'urtalanish imkoniyati cheklanganligi hisobga olinsa, mahalliy aholi himoyasiz. NDCning moslashish maqsadlari iqlim o'zgarishining bashorat qilinayotgan oqibatlariga mos keladi, ammo batafsil rejalar ishlab chiqilishi kerak. Mahalliy aholi moslashuv choralari ishlab chiqishda muhim ishtirokchi hisoblanadi.	O'rta muddatidan uzoq muddatligacha: - Moslashuv strategiyasini qo'llab-quvvatlash uchun iqlim ma'lumotlari va xavflar tahlilining ishonchli tizimini yaratish - Davlatning shartli majburiyatlarini bajarish uchun tabiiy ofatdan keyingi chora-tadbirlarni, shu jumladan, moliyaviy vositalarni, ishlab chiqish - Tabiiy ofatlar xavfini, ayniqsa, qurg'oqchilik xavfini moliyalashtirishning asosiy mexanizmi bo'lmish sug'urta bozorini mustahkamlash	

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Sanoat va iqtisodiyotning yashil va kam uglerodli rivojlanishi (7-BRM: Arzon va toza energiya manbalari) O'zbekistonda kam uglerodli texnologiyalarga o'tish energiyani ko'p talab qiluvchi eksport tarmoqlariga savdoning ta'sirini minimallashtiradi. O'tish ko'p yillik jarayon bo'lib, u qisqa va o'rta muddatli chora-tadbirlarni belgilovchi mustahkam uzoq muddatli strategiyani talab qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, shuningdek, energiya samaradorligini oshirishning arzon choralari katta imkoniyatlar taqdim etadi. O'tish davrini yetarlicha rag'batlantirish uchun subsidiyalarni islohot qilish va uglerod narxlarini belgilash bo'yicha chora-tadbirlar zarur. Ijtimoiy oqibatlarini yumshatish kerak.	Qisqa muddatli: - Mahalliy havo ifloslanishini kamaytirish va uglerod chiqindilari darajasini nolga yetkazish maqsadlariga erishish maqsadida emissiyani kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish uchun uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasini tayyorlash lozim - Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or texnologiya yoki o'qitishni talab qilmaydigan kam xarajatli chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshlash. Ularga binolarni issiqlik izolatsiyasi bilan qoplash hamda eski binolar va ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish kiradi.	- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi - Energetika vazirligi - Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi - Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi - Transport vazirligi

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
	O'rta muddatli: - Davlat korxonalariga (DK) byudjetdan subsidiyalar berish orqali kvazi defitsitni bosqichma-bosqich qisqartirishni davom ettirish va ularni tugatish Kam emissiyali texnologiyalarga o'tishni tezlashtirish uchun kambag'al aholi qatlamlarini maqsadli qo'llab-quvvatlashni subsidiyalarni tugatish va uglerod narxini belgilash paketlarini joriy etish bilan birgalikda amalga oshirish. - Qoidalar va tariflar, elektr energiyasini sotib olish shartnomalari, ustuvor taqsimot va investor huquqlari sohalaridagi islohotlarni oxiriga yetkazish orqali qayta tiklanadigan energiyaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish - Regenerativ va sirkulyar tizimlarga asoslangan iqlimga mos sanoatni barqaror rivojlanish va bandlikni ta'minlashga yo'naltirish	

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Yashil ish o'rinlari va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash (8-BRM: Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish) Ishchi kuchlari oqimi qiyin vaziyatda bo'ladi. Qishloq xo'jaligida yuqori haq to'lanadigan faoliyatga ko'chish va diversifikatsiya tufayli sektordan tashqariga oqimlar paydo bo'lishi mumkin.	Qisqa muddatli: "Yashil" o'tish davrida ishchi kuchi talabi va taklifi tarkibidagi o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish - Ko'chirilgan ishchilar, ayniqsa, eng zaif qatlamlar, ayollar va yoshlarni yangi ish o'rinlari bilan imtiyozli ravishda ta'minlash va "yashil" ko'nikmalarni egallash uchun qayta o'qitish, shu jumladan tadbirkorlik dasturlari tashkil etish	- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi - Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi - Innovatsiyalar vazirligi - Hududiy va mahalliy hokimiyatlar - O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Yangi "yashil" sektorlar qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishi va investitsiyalarni jalb qilish va yangi firmalar ochilishini qo'llab-quvvatlash siyosatini o'tkazishni talab qilishi mumkin. Xizmat ko'rsatish sohalar, innovatsiyalar va texnologiyalar o'sib borishi bilan yangi ko'nikmalar talab etiladi. "Jigar rang" sektorning ko'chirilgan ishchilari qayta taqsimlanmaguncha ularning daromadlarini tiklash kerak bo'ladi. Yangi "yashil" ish o'rinlari va qayta tayyorlash dasturlariga imtiyozli kirish imkoniyati ko'rib chiqilishi mumkin. Qayta tayyorlash va ishga joylashish dasturlariga mahalliy hokimiyatlar ham qo'shilishi lozim.	- Eng ko'p zarar ko'rgan mintaqalar va jamoalarga ustunlik bergan holda (qisqa va o'rta muddatli) kompaniyalar va tarmoqlar o'rtasida ko'chish imkoniyatlarini yaxshilash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun kasbiy ta'lim darajasini oshirish Shor Qisqa muddatlidan o'rta muddatligacha: - Jismoniy shaxslar va korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimlarini joriy qilish. Ushbu choralar ekologiya va uglerod solig'i orqali moliyalashtirilishi mumkin	

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
	- Iqlim o'zgarishi xavfi va yashil o'tish masalalarini hal qilishda mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mahalliy hokimiyat va mahalla qo'mitalari salohiyatini kuchaytirish - Mahalliy darajada mulkchilik huquqlari va barqarorlikni ta'minlash uchun yer va tabiiy resurslarni rejalashtirish va boshqarishga, shuningdek, qishloqlarda yashil infratuzilmani rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga mahalla qo'mitalari jalb qilish.	

Yashil yo'nalish va uning konteksti	Tavsiya etilgan ustuvorliklar	Idoralar
Yashil moliyalashtirish (17-BRM: Maqsadlarga erishish uchun hamkorlik) Davlat budjetini boshqarishni takomillashtirish va "yashil" fiskal siyosatga "yashil" maqsadlar bilan muvofiqlashtirilgan holda o'tish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, "yashil" daromadlarni jalb qilish imkoniyatlari ham mavjud, ammo davlat xarajatlaridagi asosiy muammolarni, ayniqsa subsidiyalar bilan bog'liq masalani hal qilish kerak. BRM obligatsiyalari tajribasi xususiy sohadan "yashil" moliyalashtirish manbalarini jalb qilish uchun qo'l kelishi mumkin. O'zbekiston Yashil fondi davlat va boshqa resurslarni tashkil etishning strategik vositasi bo'lib, boshqa moliyalashtirish manbalari va institutlarni siqib chiqarmaydi.	Qisqa muddatli: - Maqsadli "yashil" davlat xaridlari orqali "yashil" yechimlarni erta tijoratlashtirishni qo'llab-quvvatlash - Davlat ekologik siyosatini ilgari surishda davlat va xususiy moliyalashtirishni strategik yo'naltirish uchun O'zbekiston yashil va/yoki suveren fondining salohiyati va tegishli loyihasini o'rganish. - Yashil va iqlim obligatsiyalarini chiqarish salohiyatini mustahkamlash va standart yashil taksonomiyalar yordamida yashil investitsiya loyihalarini yaxshiroq aniqlash O'rta muddatli: - Davlat korxonalarining investitsiyalari va qarorlarini uzoq muddatli "yashil" ustuvorliklarga muvofiqlashtirish - Ekologik standartlar asosida aktsiz solig'ini qo'llash va qayta tiklanadigan energiyani joriy qilish uchun soliq imtiyozlarini joriy etish - Tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalarni qayta yo'naltirishni ko'rib chiqish: tabaqalashtirilgan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), tariflar, import bojlari va aktsizlar Global tartibga solish tendentsiyalariga muvofiq "yashil" moliyalashtirish standartlarini o'rnatish va "yashil" investitsiyalarni moliyalashtirishdagi to'siqlarni bartaraf etish orqali "yashil" moliya sektorini qo'llab-quvvatlash	- Moliya vazirligi - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi - Kapital bozorini rivojlantirish agentligi

